

ABDULLA ORIPOV- QALBLARGA NUR BAXSH ETGAN SHOIR

Raimova Dilshoda Ulug'bek qizi

"TIQXMMI" Milliy Tadqiqot Universiteti "Ekologiya va Huquq" fakulteti 1-bosqich talabasi. Email: dilshodaraimova011@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining ulug' siymolaridan biri- Abdulla Oripov hayoti va ijodi yoritiladi. Shoirning bolaligi, ta'lim olgan yillari, adabiyotga kirib kelishi va ijodiy faoliyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Uning she'rlari, dostonlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning milliy ruh va vatanparvarlikni tarannum etuvchi asarlari tahlil qilinib, ularning bugungi avlod uchun ahamiyati ochib beriladi. Maqola orqali Abdulla Oripov ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning bebaho merosi keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov hayoti va ijodi, bolaligi, ta'lim olgan yillari, ijodiy faoliyati, mukofotlari, tarjimalari, Davlat madhiyasi muallifi.

KIRISH

O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan buyuk shoirlardan biri- Abdulla Oripov o'zining betakror ijodi va xalqona ruhdagi she'rlari bilan millatimizning ma'naviy merosiga ulkan hissa qo'shgan. Uning ijodi ezgulik, vatanparvarlik, muhabbat va insoniylik kabi oliyjanob tushunchalarni yuksak badiiy darajada ifodalashi bilan ajralib turadi. Abdulla Oripov o'zbek milliy she'riyatini yangi bosqichga olib chiqib, uni xalqaro maydonda ham tanitgan ijodkorlardan biridir.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan, deya yer-u osmonin,

Muqaddas atayman, atayman tanho. [1]

Shoir ijodida vatanparvarlik alohida o'rin tutadi. Uning eng katta xizmatlaridan biri davlatimiz madhiyasi matnini yozgani bo'lib, bu asar nafaqat yurtimiz tarixida, balki xalqimiz qalbida muqaddas o'rin egallagan. Uning madhiyadagi misralari yurtimizga sadoqat, milliy o'zlik va g'ururni tarannum etadi. Abdulla Oripovning ijodi keng qamrovli bo'lib, uning dostonlari, tarjimalari va adabiy tanqidiy maqolalari ham shoirning ijodiy salohiyatining kengligini ko'rsatadi. U o'z asarlarida inson va tabiat, hayot va o'lim, muhabbat va sadoqat, ezgulik va yovuzlik kabi mavzularni chuqur badiiy ifodalagan.

ASOSIY QISM

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-mart- ayni Yilboshi bayrami kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. Qishloq Qo'ng'irtov etagiga o'rnashgan, oqarvsuv taqchil bo'lsada, seryomg'ir kelgan

yillarda ko'kat-u maysalarga ko'milib qoladigan kengish joyda edi. Ana shunday go'zal maskanda tug'ilib o'sgan shoirning otasi Orifboy Ubaydulla o'g'li ishbilarmon dehqonlardan bo'lib, jamoa xo'jaligi raisi edi. Onasi Turdixol momo ko'pchilik o'zbek ayollari singari sarishta, mehnatkash, mehribon, g'oyat ta'sirchan va ezgulikka tashna ayol bo'lgan. Oilada to'rt o'g'il to'rt qiz bo'lib, shoir o'g'illarning kenjasi edi. [2] Bolaligi qishloqdagi boshqa tengdoshlariniki singari qo'y boqish, suv tashish, pichan o'rish, yantoq chopish, somon to'plash bilan o'tdi. Ayni vaqtda, u boshqacharoq ham edi: qandaydir xayolchan, ta'sirchan, o'ychil, kitobga haddan tashqari ko'ngil qo'ygan. Oripov hali maktabga bormay turib, qandaydir so'zlarni bir- biriga uyqash qilib aytib yurishni xush ko'rar, so'zning mazmunidan ko'ra ohangi uni qattiq bezovta qilardi. Shoir yoshligini shuunday eslaydi: Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o'quv yurtlarida til- adabiyot fakultetlarida o'qishardi. Tabiiyki, ular ko'tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi.

Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib o'qiybolardim... Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon

va yana boshqa ko'p ro'mon-u qissalar bo'lardi. Darvoqe, qish kunlarida to'ylarga qo'shni tumanlardan baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir- birimizga biqinishib uxlab qolar edik. Yanglishmasam, o'shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko'p eshitganman...

Mendan katta akam, hozir u qishloq xo'jaligi sohasida professor, she'r yozib, mutassil bolalar gazetasiga jo'natib turardi. Gazetadan kelgan javob xatini akamga bildirmay o'qirdim. Xatda jumladan, bunday gaplar yozilgan bo'lardi: "Abdurazzoqjon, she'ringizning mavzusi yaxshi, lekin qofiya- turoqlari chatoq va hokazo". Keyin men qofiya- turoqni o'rganish uchun rosa kitob titardim...

Birinchi she'rlar yoza boshlaganimga nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q".

Abdulla Oripov 1958-yilda maktabni oltin medal bilan tamomlab, O'zbekiston Milliy Universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi va uni ham 1963- yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. She'rlari avval tuman, viloyat gazetalarida bosilib turgan bo'lsada, birinchi marta respublika bolalar gazetasida "Qushcha" nomli she'ri bosilib chiqqan. Shoir ijodining ilk bosqichlarida milliy ruh, Vatanga bo'lgan muhabbat, insoniylik va adolat mavzulariga katta e'tibor qaratdi. Uning ilk she'riy to'plami "Mitti Yulduz" nomi bilan 1965- yilda nashr etilgan bo'lib, u o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Shundan keyin

shoirning “Ko’zlarim yo’lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Ruhim”, “O’zbekiston” (1971), “Xotirotn”, “Yurtim shamoli” (1974), “Yuzma-yuz”, “Hayrat” (1979), “Najot qal’asi” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Munojot” (1992), “Saylanma” (1966), “Dunyo” (1999) singari she’riy kitoblari nashr etilgan. Oripovning dastlabki she’rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o’z o’rnini falsafiy mushohadalarga bo’shatib, shoirning hayotda ro’y berayotgan munosabati faol tus oldi. Shu ma’noda “ Tilla baliqcha”, “Qo’riqxon”, “Genetika”, “Olomonga” kabi she’rlar Oripovning lirik she’riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi. Xuddi shu narsa Oripovning doston janriga murojaat etishi va liro-epik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga sababchi bo’ldi. Shoir “Jannatga yo’l” (1978), “Hakim va ajal” (1980), “Ranjkom” (1988) kabi dostonlarida ma’naviyat masalariga alohida e’tibor berib, kishilarning ruhiy olamidagi ayrim qusurlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot va tafakkurning parvozi o’rtasidagi ziddiyatni ochib tashladi.[3] Shoirning deyarli har bir she’ri hayotdagi ma’lum bir voqea, hodisa bilan bog’liq, jo’nroq qilib aytganda har birining turtkisi bor. Masalan, “Ayol” degan she’ri urushdan qaytmagan amakilarining bevalariga bag’ishlangan. Oripov esa ularning iztiroblarini ko’rib, kuzatib ulg’aygan. Yoxud “O’zbekiston” qasidasining yozilishi-chi? Vatanning butun Sovet ittifoqi, deb uqtirib turilgan bir paytda, O’zbekiston nima bo’ldi ekan, degan savol yuragining tubida paydo bo’lgan bo’lib, hoynahoy, “Vatanim – O’zbekiston” deb she’r yozgan bo’lsa, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini ko’rib “Ona tilimga” nomli she’rini yozgan bo’lsa ajab emas. Shu o’rinda bir gapni aytib o’tmasak bo’lmas. Abdulla Oripovning ijodida yolg’izlik, mahzunlik tuyg’ulari ko’p uchraydi, bu haqida unga ko’p dakki berishgan va buning sababini turlicha sharhlashgan ham. Aslida esa mening uning tabiati shunaqaroq bo’lsa kerak. Ikkinchidan, shoirni qiynagan savollarga javob topolmay o’rtangandir, uchinchidan esa hasad degan baloning hujumiga juda erta duch keldim. Bularning barchasi satrlarida qandaydir shaklda aks etgan bo’lsa, ajab emas. Chunonchi, hajviy ruhdagi she’rlari ham qandaydir sun’iy ravishda yaratilgan emas deb o’ylayman. Ko’p qatori uni ham laqillatgan, aldagan odamlarning son-sanog’i yo’q. Haligiday achchiqroq she’rlarning yozilishiga, albatta, o’shalar sabab bo’lgan. Shoir shunday g’aroyibotlar yaratish bilan bir qatorda xalqimizni dunyo adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham talay ishlarni amalga oshirgan. Ushbu ishlarlarning eng asosiysi Dantening

“Ilohiy Komediya” si deb bilaman. Oripovning o’zi bu ishi to’g’risida quyidagi fikrlarni aytib o’tgan “ Agar qog’oz ustida eng ko’p ter to’kkan bo’lsam, o’sha tarjima ustida to’kkanman. Ona tilimizning naqadar boy ekanligiga imon keltirgan bo’lsam, o’sha tarjima ustida imon keltirganman”.

Ish faoliyati. Abdulla Oripov o'z qishlog'idagi yeti yillik maktabda o'qiydiva 1958- yilda qo'shni Tyanzan ovulidagi o'rta maktabni oltin medal bilan bitirgan yigit Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU) "O'zbek filologiyasi" fakulteti jurnalistika bo'limiga o'qishga kirib, uni 1963-yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi. Abdulla Oripov oliy maktabni tugatgach, Toshkentdagi sobiq "Yosh gvardiya" nashriyotiga muharrir bo'lib ishga kiradi. Bu yerda to'rt yil ishlagach, 1967-1974-yillarda G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir, kata muharrir bo'lib xizmat qiladi. 1974-1976-yillarda "Sharq yulduzi" jurnalida bo'lim boshlig'i bo'ladi. Olovli she'riyati bilan muxlislarning mehrini qozongan shoir 1976-1982- yillar orasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi sifatida adabiyotga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga rahnamolik qildi. 1982-1983-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo'limida mas'ul kotib bo'lib faoliyat ko'rsatdi. 1983-yilda shoir o'quvchilarning jurnali " Gulxan"ning bosh muhariri bo'ldi va u yerda 1985-yilgacha, ya'ni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi lavozimiga o'tguncha ishladi. Uyushmaning kotibi lavozimida uch yil ishlagan Abdulla Oripov 1988- yilda O'zbekiston Respublikasi mualliflik huququni himoya qilish qo'mitasi raisi vazifasiga o'tkazildi. 1996- yilning mart oyidan 2009- yilga qadar shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida mehnat qildi.

Abdulla Oripov 1983-yilda Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yili unga O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko'rildi, 1998-yilda esa shoir "O'zbekiston qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi.[4]

Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiyot ixlosmandlariga, balki keng xalq ommasiga ham yaqin bo'lib u millatning dardini, quvonchini, orzularini o'z she'rlarida aks ettira oldi. Uning she'rlari ko'p hollarda kuyga solingan, qo'shiqlarga aylangan va yillar o'tsada xalq orasida mashhurligini yo'qotmagan. Misol qilib, xalqimiz sevgan san'atkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sherali Jo'rayev tomonidan kuylangan hammaq mashhur "Birinchi muhabbatim" she'rini aytishimiz mumkin.

Kecha oqshom falakka oy bo'zarib botganda, Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda, Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda, Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,

Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.[5]

Shoir qalami orqali ifodalangan tuyg'ular o'zbek xalqining ruhiy olamiga uyg'un tushgani sababli, uning asarlari ko'p yuraklardan joy olgan. Uning ijodida milliy g'urur bilan bir qatorda insoniylik, dunyoqarash, imyon va e'tiqod mavzulari ham katta o'rin egallagn. Ayniqsa, mustaqillik yillarida yozilgan she'rlarida ijtimoiy ong, yurtparvarlik va vatan taqdiri ustuvor bo'ldi. Abdulla

Oripov badiiy soʻz orqali milliy tafakkurni uygʻotdi, shoir sifatida emas, maʼnaviy yetakchi sifatida ham eʼtirof etildi. Shoir shaxsiyatida sodda, kamtar, ammo kuchli irodali, qatʼiyatli inson obrazini koʻramiz. U oʻz hayoti davomida yuksak lavozimlarda ishlagan boʻlsada, qalbida har doim shoir boʻlib qoldi. U ijodkor uchun muhim boʻlgan poklik, vijdon, sadoqat kabi fazilatlarni hayoti va ijodi namoyon etdi.

Abdulla Oripov haqida zamondoshlari har doim chuqur hurmat va ehtirom bilan soʻz yuritganlar. Oʻzbek xalq shoiri Erkin Vohidov uni “sheʼriyatimizning ornomusi, milli gʻururimiz” deb atagan. Uning fikricha, Abdulla Oripov nafaqat isteʼdodli shoir, balki vijdonli, pok qalbli inson sifatida ham jamiyatga oʻrnak boʻlgan. Akademik Ibrohim Haqqulov esa shoirning ijodini tahlil qilar ekan, shunday degan edi: “Abdulla Oripov soʻzga masʼuliyat bilan qaragan, sheʼriyatni muqaddas deb bilgan ijodkoredi. U har bir satrni yiragi bilan yozar, xalqning dardini yuragidan oʻtkazib ifodalar edi.

Mashhur yozuvchi Tohir Malik esa shunday degan: “ Abdulla Oripov shoir emas xalqning yurak tovushi edi. Uning sheʼrlari yurakka emas toʻgʻri yurakning tubiga tushardi”. Bu kabi eʼtiroflar Abdulla Oripovning nafaqat oʻquvchilar, balki adabiy jamoatchilik orasida ham qanday yuksak baholanganini yaqqol koʻrsatadi.

Xulosa. Abdulla Oripov oʻzbek sheʼriyati osmonida porlagan yulduzlardan biri boʻlib, oʻzining boy, serqirra va mazmunli ijodi bilan xalq qalbida mustahkam oʻrin egallagan. Uning har bir asari- bu nafaqat adabiy boylik, balki maʼnaviy meros, hayot sabogʻi, yurak ovozi. Shoirning vatanga muhabbati, xalq taqdiriga befarq boʻlmagan qalbi, insoniy tuygʻularga toʻla ruhiy olami uni chin maʼnodagi xalq shoiri sifatida tanitdi. Abdulla Oripov sheʼrlaridagi inson hayoti, muhabbat, vatanparvarlik, iymon, poklik, ezgulik kabinabadiy mavzularni oʻziga xos uslubda, samimiyat va chuqur maʼnaviyat bilan kuyladi. Ayniqsa, mustaqillik davri sheʼriyatiga olib kirgan yangicha ruh, milliy gʻurur va or - nomus tuygʻulari bugungi yoshlar uchun ham ibrat manbai boʻlib xizmat qilmoqda.

Shoirning hayoti va faoliyati, mukofotlari, eʼtiroflari, zamondoshlarining mehr bilan bildirgan tilaklari ham uning qanday yuksak shaxs, chinakam maʼnaviyat fidoyisi boʻlganini yaqqol isbotlaydi. U nafaqat ijodkor, balki el ardogʻidagi donishmand, oliyjanob va kamtar inson edi. U oʻzbek adabiyotida chuqur iz qoldirdi va bu izlar kelajak avlod uchun oʻchmas yoʻl- yuruq, saboq boʻlib qoladi. Shubhasiz Abdulla Oripov ijodi bardavom, siymosi esa abadiydir. U hayotdan oʻtsa-da, sheʼrlari orqali qalblarimizda yashaydi, soʻzi orqali dillarni quvvatlantiradi, ruhimizga qudrat bagʻishlaydi. Shoir barhayot, zero u xalq yuragida, Vatan xotirasida abadiy yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kh-davron.uz>
2. Abdulla Oripov . <https://akademiklar.uz>
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. <https://tafakkur.net>
5. <https://ziyouz.uz>